QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 5-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i05.174

UDK: 821.111(73)-311.6.09

XX ASR IKKINCHI YARMIDA AMERIKA QO‘SHMA SHTATLARI TARIXIY ROMANLARINING EVOLYUTSIYASI VA DAVRLASHTIRISH MUAMMOLARI

Boqiyev Nurali Abdurashid o‘g‘li
Is’hoqxon Ibrat nomidagi
Namangan davlat chet tillari instituti o‘qituvchisi
MDWCT@mail.ru
+99893-4081634

Annotatsiya: *XX asr ikkinchi yarmida Amerika Qo‘shma Shtatlari (AQSH) tarixiy romanlarining evolyutsiyasi va davrlashtirish muammolari mavzusiga bag‘ishlangan ushbu maqolada AQSH tarixiy romanining 1950-2000-yillar oralig‘idagi rivojlanish bosqichlari ijtimoiy-madaniy, siyosiy va nazariy omillar bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilinadi. Tadqiqotda fuqarolik huquqlari harakati, Vyetnam urushi, feministik va postkolonial diskurslar, shuningdek postmodernistik nazariyaning AQSH tarixiy romanlari poetikasiga ko‘rsatgan ta’siri yoritiladi. Maqolada Uilyam Stayron, Tomas Pinchon, Jon Bart, E. L. Doktorou, Toni Morrison, Kormak Makkarti, Luiza Erdrix kabi yozuvchilarning asarlari asosida tarixiy narrativning transformatsiyasi, milliy miflarning qayta talqini hamda marginal guruhlar ovozining tarixiy roman tarkibiga kirib kelishi tadqiq etiladi. Shuningdek, tarixiy haqiqatning narrativ tabiatiga nisbatan skeptitsizm, tarixiy travma, multikulturalizm va identiklik masalalarining badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida XX asr ikkinchi yarmidagi AQSH tarixiy romanining rivojlanishi to‘rt asosiy davrga ajratilib, ularning poetik va ideologik xususiyatlari aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Amerika tarixiy romanlari, postmodernizm, tarixiy narrativ, multikulturalizm, postkolonializm, identiklik, tarixiy travma, revizionistik roman, AQSh adabiyoti, tarixiy ong.*

Adabiyotning tarixiy ongi uni yuzaga keltirgan davrning tarixiy ongidan ajralmasdir. Jamiyat chuqur ijtimoiy, siyosiy va madaniy larzalarni boshdan kechirganida, adabiyot izoh, o‘xshashlik yoki qarama-qarshilik izlab muqarrar ravishda o‘tmishga murojaat qiladi . Bu qonuniyat, ayniqsa, tarixiy roman janrida yaqqol namoyon bo‘ladi. Aynan keskin ijtimoiy

inqirozlar va transformatsiyalar davrida ushbu janr o‘zining eng yuksak taraqqiyot bosqichlarini boshdan kechiradi, chunki aynan shunday paytlarda bugunning tarixiy mohiyatini anglashga ehtiyoj nihoyatda kuchayadi.

XX asrning ikkinchi yarmidagi AQSh adabiyoti bu qonuniyatni to‘la tasdiqlaydi. 1950–2000-yillar oralig‘i AQSh tarixida Vyetnam urushi va uning natijasidagi nihoyatda keskin axloqiy inqiroz, Amerika jamiyatining an’anaviy irqiy tartibini izdan chiqargan fuqarolik huquqlari harakati, gender munosabatlarini tubdan o‘zgartirgan feminist inqilob, AQSh o‘rta sinfining asosiy qadriyatlarini shubha ostiga qo‘ygan kontrmadaniyat harakati, “Amerika orzusi”ning millatni birlashtiruvchi mafkura sifatida asta-sekin yemirilishi kabi mislsiz ijtimoiy va madaniy burilishlar davri bo‘ldi. Bu jarayonlarning barchasi birgalikda milliy o‘zlikning chuqur inqirozini, ya’ni amerikaliklarning o‘zlari kim ekanligi, qayerdan kelgani va qayerga qarab ketayotgani haqidagi tasavvurlar inqirozini keltirib chiqardi.

Shunday sharoitda tarixiy roman AQSh adabiyoti uchun milliy o‘tmishni qayta anglashning eng muhim vositalaridan biriga aylandi. XX asr ikkinchi yarmidagi amerikalik romannavislar tarixga murojaat qilar ekanlar, unga zamonaviy muammolarning keskinligi taqozo etgan Amerika idealizmining tabiati va chegaralari qanday; rasmiy mifologiya pardasi ortida yashirinib yotgan Amerika demokratiyasining asl asoslari nimadan iborat; qullik, genosid va ijtimoiy zo‘ravonlik evaziga to‘langan milliy taraqqiyotning bahosi qanday; siqib chiqarilgan ovozlarning milliy narrativni shakllantirishda ishtirok etish huquqi bormi qabilidagi savollarni berdilar.

1940-1950-yillar chegarasi Amerika madaniyatida ikkiyoqlama vaziyat bilan belgilandi. Bir tomondan, Ikkinchi jahon urushidagi g‘alaba milliy o‘zini tasdiqlashning kuchli impulsini yuzaga keltirdi, zero AQSh urushdan nafaqat harbiy, balki ma’naviy g‘olib sifatida, totalitarizmni to‘xtatgan mamlakat sifatida chiqdi. Bunday muhitda rasmiy milliy narrativ taraqqiyot, erkinlik va AQShning tarixiy missiyasi haqidagi narrativ o‘z-o‘zidan ravshan, tanqidiy tekshiruvni talab qilmaydigan haqiqatdek tuyulardi. Shu sharoitda yaratilgan tarixiy roman, odatda, AQSh o‘tmishiga nisbatan ana shu optimistik qarashni bo‘lishar va uni an’anaviy shakllarda qayta ifodalar edi.

Boshqa tomondan esa, 1950-yillarning o‘zidayoq rasmiy optimizm yuzasi ostida keyingi o‘n yillikda portlab chiqishi kerak bo‘lgan ziddiyatlar kuchayib borayotgan edi. Makkartizm va siyosiy ta’qiblar muhiti AQSh demokratiyasi e’lon qilgan qadriyatlar bilan ijtimoiy hayotning real amaliyoti o‘rtasidagi nomuvofiqlik hissini nihoyatda o‘tkirlashtirdi. Aynan shu kontekstda tarixga tanqidiy masofa makoni sifatida murojaat qilgan bir qator romannavislarning dastlabki ijodini ko‘rib chiqish lozim. 1950-yillar adabiyotida tarixiy mavzu ko‘pincha Ezop tili vazifasini bajargan. Zero o‘tmishga murojaat qilish davrning senzura va mafkuraviy cheklovlarini chetlab o‘tgan holda bugun haqida gapirish imkonini

bergan. Tarixning zamonaviy tanqid tili sifatidagi ana shu funksiyasi garchi uning shakllari sezilarli darajada o‘zgargan bo‘lsa ham asrning ikkinchi yarmi davomida saqlanib qoldi.

XX asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar AQSh tarixiy romanining tematik hamda poetik xususiyatlarini qanday belgilab berganini aniqlsh uning shu davrdagi rivojlanishining asosli davrlashtirilishini talab etadi.

XX asrning 1960-yillari Amerika jamiyati uchun milliy o‘tmish va hozirgi zamonni tubdan qayta anglash davri bo‘ldi. Martin Lyuter King Jr. boshchiligidagi fuqarolik huquqlari harakati Amerikaning demokratik yetakchilik da’volarining “o‘z-o‘zidan ravshanligi”ni shubha ostiga qo‘ydi: insonlar tengligi “o‘z-o‘zidan ayon haqiqat” deb e’lon qilingan mamlakat qanday qilib ikki asr davomida aholisining katta qismini huquqiy tengsizlik sharoitida ushlab tura olgan? Jon F.Kennedi suiqasdi, Vyetnam urushining kuchayib borishi, yirik shaharlardagi irqiy to‘qnashuvlar, bularning barchasi Amerikani doimiy taraqqiyot va tarixiy optimizm mamlakati sifatida tasvirlovchi obrazni yemira boshladi.

Ana shunday sharoitda Amerika tarixiy romani jiddiy transformatsiyani boshdan kechira boshladi. Agar ilgari u asosan milliy tarixning rasmiy narrativini tasdiqlagan bo‘lsa, endi u tobora qat’iyroq tarzda uni shubha ostiga qo‘ya boshladi. Bu narrativ siqib chiqargan yoki sukut saqlagan ovozlarga so‘z bera boshladi. Ushbu o‘zgarishning eng yorqin va ayni paytda eng bahsli namunasi Uilyam Stayronning “Nat Tyornerning iqrorlari” (The Confessions of Nat Turner) romani bo‘ldi. Bu asar qullik haqida birinchi shaxs nomidan, ya’ni isyonkor qul nuqtayi nazaridan hikoya qiluvchi ilk yirik Amerika romanlaridan biridir.

Stayron romani davr madaniy muhitiga xos keskin polemikani keltirib chiqardi. Qora tanli tanqidchilar va yozuvchilar uni “begona ovozni o‘zlashtirish”da hamda tarixiy shaxsni noto‘g‘ri talqin qilishda aybladilar. “O‘n qora tanli yozuvchining javobi” (Ten Black Writers Respond) to‘plami aynan shu romanga javob sifatida yuzaga kelib, tarixiy so‘zga egalik masalasi, tarixni kim va qaysi nuqtayi nazardan hikoya qilish huquqiga egaligi masalasi davrning markaziy madaniy muammosiga aylanganini ko‘rsatdi. Stayron romani atrofidagi polemika Amerika madaniy hayotining chuqur ziddiyatini ochib berdi: integratsiyaga intilgan liberal qarashlar endigina shakllanayotgan madaniy avtonomiya va o‘z ovoziga egalik qilish talabi bilan to‘qnash keldi.

1960-yillarda Amerika adabiyotida yana bir muhim yo‘nalish shakllandiki, bu keyingi o‘n yilliklarda tarixiy roman qiyofasini belgilab bergan postmodernistik yondashuv edi. Tomas Pinchonning “V.” (1963) romani va Jon Bartning “Tamaki savdogari” (The Sot-Weed Factor) (1960) asari tarixiy hikoyaning ishonchliligi imkoniyatini tubdan muammolashtirdi va tarixni o‘yin, parodiya va yechimi yo‘q noaniqlik makoniga aylantirdi. Bu asarlar nazariy jihatdan Hayden Uayt amalga oshirgan epistemologik burilishning badiiy ifodasiga aylandiki, tarix endi obyektiv faktlar makoni emas, balki ritorik va ideologik konvensiyalarga bo‘ysunuvchi narrativ konstruksiyalar maydoni sifatida talqin qilina boshladi.

Yakov Zasurskiy 1960-yillar Amerika adabiyotini tahlil qilar ekan, bu davrni “ikki tomonlama inqiroz – ijtimoiy optimizm inqirozi va narrativ ishonch inqirozi” [1] davri sifatida tavsiflaydiki, Amerika romannavislari bir vaqtning o‘zida ham Amerika tarixining progressivligiga bo‘lgan ishonchni, ham uni ishonchli tarzda tasvirlash imkoniyatiga bo‘lgan ishonchni yo‘qota boshladilar. Ana shu ikki inqiroz Amerika tarixiy romanining keyingi bir necha o‘n yillikdagi mazmuniy va shakliy rivojlanish yo‘nalishini belgilab berdi.

XX asrning 70-yillari Yetmishinchi yillar Amerika tarixiy narrativini yanada radikal qayta anglash davriga aylandi. Vyetnamdagi mag‘lubiyat, Uotergeyt mojarosi, neft inqirozi va institutsional yemirilish tuyg‘usining tobora kuchayib borishi Amerika tarixini demokratiya va farovonlik sari tantanali harakat sifatida talqin qiluvchi “konsensus” qarashining so‘nggi qoldiqlarini ham barbod qildi. Ana shunday muhitda Amerika o‘tmishining muqobil talqinlariga, ya’ni rasmiy narrativ e’tiboridan chetda qolgan kishilar tarixiga kuchli qiziqish paydo bo‘ldi.

Adabiy jihatdan 1970-yillar, avvalo, keyinchalik “multikultural” tarixiy roman deb ataladigan hodisaning ravnaq topishi bilan ajralib turdi. Afroamerikan, chikano, ayollar va boshqa “marginal” adabiy an’analar rasmiy narrativdan siqib chiqarilgan tajribani rekonstruksiya qilish maqsadida tarixga murojaat qildilar. Bu jarayon nafaqat adabiy, balki akademik omillar bilan ham belgilandi: aynan 1970-yillarda Amerika universitetlarida “afroamerikan tadqiqotlari”, “ayollar tadqiqotlari”, “chikano tadqiqotlari” mustaqil fan yo‘nalishlari sifatida faol shakllandi va milliy tarixga yangicha yondashuv uchun intellektual infratuzilmani yaratdi.

O‘n yillik adabiy hayotining asosiy voqealaridan biri Aleks Xeylining “Ildizlar” (1976) romanining nashr etilishi va uning keyinchalik rekord darajadagi teleauditoriyani jamlagan ekranlashtirilishi bo‘ldi. Afrikadagi ildizlaridan tortib Fuqarolar urushidan keyingi davrgacha bo‘lgan afroamerikan oilasi tarixini kuzatuvchi bu roman umummilliy miqyosdagi madaniy hodisaga aylandi va Amerika o‘tmishining muqobil tasviriga naqadar ulkan o‘quvchi talabi mavjudligini yaqqol namoyon etdi. Xeyli romanlari muqobil tarix akademiklari va adabiy avangard vakillarining mashg‘ulotidan chiqib, ommaviy madaniy fenomen darajasiga ko‘tarilgan lahzani belgiladi, bu esa o‘z-o‘zidan rasmiy milliy narrativ inqirozining naqadar chuqur ekanidan dalolat beradi.

1970-yillarda Amerika adabiy maydonida keyinchalik “feministik tarixiy roman” deb ataladigan hodisa ham shakllana boshladi. Feminist yozuvchi ayollar tarixiy o‘tmishga ayollar tajribasini, ya’ni rasmiy tarixdan muntazam ravishda siqib chiqarib kelingan tajribani qayta tiklash maqsadida murojaat qildilar. Bu romanlar nafaqat muayyan tarixiy talqinlarni, balki tarix an’anaviy ravishda yozib kelingan “erkaklar nigohi”ning o‘zini ham shubha ostiga qo‘ydiki, ular katta harf bilan yoziladigan “Tarix” deb hisoblangan narsa aslida erkaklarning

ijtimoiy-jamoaviy sohasi tarixi ekanini, bunda esa ayollarning xususiy, jismoniy va hissiy tajribasi muntazam ravishda chetga surib qo‘yilganini ko‘rsatdi.

1970-yillarning yana bir eng muhim hodisasi E. L. Doktorouning “Regtaym” (1975) romani bo‘ldi. Bu asarni L. Xatcheon o‘zining “tarixshunoslik metaproza” konsepsiyasining markaziy namunasi sifatida ko‘rsatgan. “Regtaym” xayoliy personajlarni Gudini, Emma Goldman, Genri Ford, Freyd kabi real tarixiy shaxslar bilan namoyishkorona ravishda aralashtirib yuboradi va shu orqali har qanday tarixiy narrativning konstruksiya qilingan tabiatini ko‘rinadigan qiladi. “Doktorou tarixni shunchaki qayta yozmaydi, — deb yozadi Xatcheon, — u tarix allaqachon yozib bo‘linganini, allaqachon narrativ konstrukt ekanini ko‘rsatadi; bu uning ahamiyatini kamaytirmaydi, biroq bizning uning haqiqatga da’volariga bo‘lgan munosabatimizni o‘zgartiradi”[2].

Saksoninchi yillar, ehtimol, XX asr ikkinchi yarmidagi Amerika tarixiy romani tarixidagi eng sermahsul o‘n yillik bo‘ldi. Aynan shu davrda janr qiyofasini belgilab bergan va jahon adabiyoti kanoniga kirgan asarlar yaratildi. Kormak Makkartining “Qonli meridian”, Luiza Erdrixning “Sevgi-dori”, Toni Morrisonning “Sevimli”, Don DeLilloning “Libra” romanlari shular jumlasidandir. Bu asarlarning har biri Amerika tarixining o‘ziga xos badiiy talqinini namoyon etadi va ayni paytda tarixiy roman tabiatini nazariy anglashga jiddiy hissa qo‘shadi.

O‘n yillikning eng muhim adabiy voqeasi Toni Morrisonning “Sevimli” romani nashr etilishi bo‘ldi. Qochqin qul ayol Margaret Garnerning o‘z qizini qullikka qaytarilishdan saqlab qolish uchun o‘ldirgani haqidagi real tarixiy voqeaga asoslangan ushbu roman qullik tarixini badiiy anglashga prinsipial jihatdan yangi yondashuvni namoyon etdi. Morrison tarixiy faktlarni shunchaki takrorlash yoki faqat sotsiologik hamda siyosiy tahlil bilan cheklanib qolmadi; u tarixiy travmani boshdan kechirish uchun badiiy makon yaratdi va rasmiy tarix muntazam ravishda siqib chiqargan hamda sukut saqlagan tajribani idrok etish imkonini berdi.

Roman muqaddimasida Morrison o‘z badiiy vazifasini tarixiy xotirasi tortib olingan kishilarga uni qaytarish sifatida ifodalaydi: “Menga qullik tajribasini statistika va hujjatlar orqali emas (bu tarixchilarning ishi), balki hujjatlashtirib bo‘lmaydigan qismi – his qilish orqali, aytilmay qolgan narsalar orqali anglash zarur edi” [3]. Tarix sukut saqlagan narsaga ovoz berishdan iborat bo‘lgan ana shu badiiy vazifa XX asr oxirgi charagidagi Amerika tarixiy romanining markaziy poetologik yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

1980-yillarda postmodernistik tarixiy roman badiiy amaliyot sifatida tanqid qilinishi ham kuchaydi. Bir qator tanqidchilar va yozuvchilar tarixni axloqiy jiddiylik va siyosiy mas’uliyatdan mahrum formal o‘yin materialiga aylantirish xavfi borligini ta’kidladilar. Bu tanqid, ayniqsa, afroamerikan va feminist adabiy an’analar kontekstida nihoyatda keskin tus oldi: tarixiy jarohatlarni real ravishda boshdan kechirgan jamoalarga mansub yozuvchilar

uchun tarixiy haqiqatga nisbatan postmodernistik skeptitsizm intellektual halollik emas, balki hech qachon rasmiy tarixiy yolg‘onning qurboni bo‘lmaganlarning imtiyozidek ko‘rinar edi.

XX asrning 1990-yillari Amerika tarixiy romanining qiyofasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan yangi intellektual va madaniy kontekstlarni olib keldi. Sovet ittifoqining parchalanishi va Sovuq urush yakuni kutilgan “tarixning tugashi”ni yuzaga keltirmadi; aksincha, global ikki qutbli tizimning zaiflashuvi mahalliy tarixiy ziddiyatlarning etnik, irqiy va milliy qarama-qarshiliklarning keskinlashuviga olib keldi. AQShda bu multikulturalizm, milliy identiklik asoslari va turli guruhlarning rasmiy tarixiy narrativga qo‘shilish huquqi haqidagi bahslarning kuchayishida namoyon bo‘ldi.

1990-yillar akademik muhitda postkolonial tadqiqotlarning yuksalish davri bo‘lib, bu jarayon, avvalo, Eduard Said, Homi K. Bhabha va Gayatri Chakravorti Spivak kabi nazariyotchilarning ilmiy ishlari ta’sirida shakllandi. Postkolonial nazariya hokimiyat, bilim va tarixiy narrativ o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish uchun mutlaqo yangi vositalarni taklif etdi: u rasmiy tarixiy talqinlar har doim muayyan hokimiyat nuqtayi nazaridan ishlab chiqilishini va muqarrar ravishda o‘sha hokimiyat egalari manfaatlarini aks ettirishini ko‘rsatdi. 1990-yillardagi Amerika tarixiy romani bu konsepsiyalarni faol o‘zlashtirib, ularni AQSh milliy tarixini qayta anglashga tatbiq eta boshladi.

Shu kontekstda Amerika tub aholisi yozuvchilarining avvalo Lesli Marmon Silko va Luiza Erdrix ijodi alohida ahamiyat kasb etdi. Ularning romanlari Amerika G‘arbini egallash va qit’ani “o‘zlashtirish” tarixiga mutlaqo muqobil qarashni taklif etdi. Agar rasmiy narrativ “G‘arbni zabt etish”ni sivilizatsiya g‘alabasi sifatida talqin qilgan bo‘lsa, Silko va Erdrix asarlarida bu voqealar butun madaniyatlar va sivilizatsiyalarni vayron qilgan mustamlakachilik genosidi sifatida tasvirlandi. B. Sven va A. Krup bu yo‘nalishni tavsiflar ekan, shunday yozadilar: “Tub amerikalik yozuvchilarning romanlari Amerika tarixiy xotirasiga rasmiy narrativ nafaqat sukut saqlagan, balki faol ravishda yo‘q qilgan o‘tmish qatlamlarini qayta kiritadi” [4].

1990-yillar, shuningdek, tarixiy haqiqatga nisbatan postmodernistik relativizmning kuchayib borayotgan tanqidi bilan ham belgilandi. 1970–1980-yillarda intellektual avangard sifatida ko‘ringan bu relativizm 1990-yillarga kelib o‘zining xavfli siyosiy oqibatlarini namoyon qila boshladi: agar har qanday tarixiy narrativ bir xil darajada konstruktiv bo‘lsa va ulardan hech biri boshqasiga nisbatan “ko‘proq haqiqat” da’vosini qilolmasa, unda halol tarixiy tadqiqotni ochiq tarixiy revizionizmdan qanday ajratish mumkin? Shunday sharoitda amerikalik romannavislarning bir qismi tarixiy guvohliklarning axloqiy ahamiyatini tan olish va ularni badiiy talqin qilishdagi mas’uliyatni his etish ma’nosida tarixga “jiddiy” munosabatga qaytish yo‘llarini izlay boshladi.

O‘n yillikning eng muhim asarlari qatorida Toni Morrisonning “Jazz” (1992) romani — afroamerikan tarixini badiiy tadqiq etishning davomidir va bu safar 1920-yillardagi Buyuk

migratsiya davriga murojaat qiladi — hamda Tomas Pinchonning ulkan postmodernistik romani “Meyson va Dikson” (1997) alohida ajralib turadi. Bu asar Amerika millatining shakllanish tarixini Meyson va Diksonning mashhur chegara chizig‘ini belgilash faoliyati orqali qayta talqin qiladi. Har ikki asar, ularning badiiy strategiyalari qanchalik farqli bo‘lmasin, Amerika adabiyotining tarixiy o‘tmishga milliy identiklikni anglash makoni sifatida barqaror qiziqishi saqlanib qolganini yaqqol namoyon etadi.

Ko‘rib chiqilgan xronologik davrlarni XX asr ikkinchi yarmidagi AQSh tarixiy romanining yaxlit adabiy hodisa sifatidagi o‘ziga xosligini belgilab beruvchi bir qator umumiy an’analar birlashtiradi. Ularni aniqlash mazkur adabiy an’ananing, konkret badiiy shakllar, tematik yo‘nalishlar va ideologik pozitsiyalarning sezilarli xilma-xilligiga qaramay, qanday qilib yagona tizim sifatida shakllanganini tushunish uchun zarurdir.

Birinchi va eng fundamental tendensiya milliy narrativni tasdiqlashdan uni qayta ko‘rib chiqishga o‘tishdir. Agar XX asrning birinchi yarmidagi AQSh tarixiy romani asosan Amerika o‘tmishining rasmiy versiyalarini taraqqiyot, demokratiya va o‘ziga xos tarixiy missiya haqidagi narrativni qayta ishlab, mustahkamlagan bo‘lsa, asrning ikkinchi yarmidagi adabiyot bu versiyalarni izchil ravishda shubha ostiga qo‘yadi, fosh etadi va qayta yozadi. Bu revizionistik yo‘nalish tasodifiy emas, balki davrning ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlariga chuqur ildiz otgan hodisa bo‘lib, fuqarolik huquqlari, feministik va postkolonial harakatlarning har bir to‘lqini tarixni ilgari siqib chiqarilgan yangi nuqtayi nazardan qayta ko‘rib chiqish talabini ilgari surdi.

Ikkinchi umumiy an’ana tarixiy ovozning demokratlashuvi, ya’ni tadqiqotchilar “inklyuziya” deb ataydigan jarayon – ilgari marginal holatda bo‘lgan nuqtayi nazarlarning tarixiy narrativga kiritilishidir. XX asr ikkinchi yarmidagi AQSh tarixiy romani rasmiy tarix tomonidan e’tibordan chetda qoldirilgan guruhlar – afroamerikaliklar, ayollar, tub xalqlar, immigrantlar, ishchilar sinfi vakillarining tajribasiga muntazam murojaat qiladi. P. Bredlining ta’kidlashicha, “bu davr Amerika tarixiy romanini milliy ‘biz’ tushunchasi chegaralarini kengaytirishga qaratilgan kollektiv loyiha sifatida ko‘rish mumkin: tarixiy narrativga kiritilgan har bir yangi ovoz Amerika millati tushunchasining o‘zini qayta shakllantirishni anglatadi” [5].

Uchinchi an’ana tarixiy haqiqatni obyektiv tarzda ifodalash imkoniyatiga nisbatan tobora kuchayib borayotgan skeptisizmdir. XX asr ikkinchi yarmi davomida amerikalik romannavislar “shaffof” tarixiy hikoya, ya’ni o‘tmishni go‘yoki “qanday bo‘lgan bo‘lsa, shunday” tarzda aks ettiruvchi narrativ g‘oyasining o‘zini tobora qat’iyroq shubha ostiga qo‘yadilar. Bu skeptisizm postmodernistik ironiya va formal o‘yinlardan tortib tarixiy travmani badiiy o‘zlashtirishning axloqiy chegaralari haqidagi jiddiy refleksiyagacha bo‘lgan turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Uning umumiy mohiyati shundaki, har qanday o‘tmish

haqidagi hikoya muayyan pozitsiyadan, muayyan qadriyatlar tizimi asosida va muqarrar cheklovlar doirasida yaratiladigan konstruksiya ekanligi anglanadi.

To‘rtinchi an’ana AQSh tarixining xronotopini, ayniqsa uning markaziy mifologik makoni “frontir”ni qayta talqin qilishdir. An’anaviy Amerika tarixiy narrativi G‘arbni o‘zlashtirish jarayonini erkinlik va taraqqiyot olib keluvchi sivilizatsiyaning tantanali yurishi sifatida tasvirlagan bo‘lsa, XX asr ikkinchi yarmi adabiyoti bu mifni izchil ravishda yemiradi va frontirni zo‘ravonlik, genosid va madaniy yo‘q qilish makoni sifatida ko‘rsatadi. Kormak MakKarti “Qonli meridian”da, Luiza Erdrix “Sevgi-dori”da, Lesli Marmon Silko “Marosim” romanida har biri o‘ziga xos tarzda Amerika G‘arbining rasmiy mifidan keskin farq qiluvchi muqobil obrazini yaratadi.

O‘tkazilgan tahlil asosida XX asr ikkinchi yarmidagi Amerika tarixiy romanining quyidagi davrlashtirilishini taklif etish mumkinki, bu davrlashtirish adabiyotning ichki rivojlanish omillari bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy omillarni ham hisobga oladi.

Birinchi davr (1950–1965) “kechki an’anaviylik va dastlabki yoriqlar davri” deb belgilanishi mumkin. Bu davrda AQShdagi tarixiy roman hali asosan asrning birinchi yarmidan meros bo‘lib qolgan an’anaviy janriy konvensiyalarga amal qiladi, biroq ayni shu an’ana bag‘rida keyingi o‘n yillikda yuzaga chiqadigan ziddiyatlar allaqachon kuchaya boshlaydi. Bu davrning belgilovchi xususiyatlari quyidagilardir: tarixiy romanning ko‘ngilochar o‘qish janri sifatida ustunligi va u bilan yonma-yon jiddiy badiiy refleksiya namunalarining kam sonli holda mavjudligi; tarixiy shakl bilan postmodernistik o‘yinlarning ilk tajribalari (Bart va Pinchonning dastlabki romanlari); rasmiy milliy narrativga nisbatan umuman olganda optimistik yoki neytral munosabatning cақlanib qolishi.

Ikkinchi davr (1965–1979) “reviziyalar va muqobil narrativlar davri”dir. Fuqarolik huquqlari harakati, Vyetnam urushi, feministik yuksalish kabi davrning ijtimoiy bo‘ronlari tarixiy romanning mavzusi va ideologik pozitsiyasini bevosita belgilab berdi. Asosiy badiiy impuls rasmiy tarix sukut saqlagan kishilarga ovoz berish istagi bo‘ldi. Yetakchi janriy shakllar sifatida revizionistik roman (Nyunning tipologiyasi bo‘yicha) hamda “tarixshunoslik metaproza”sining dastlabki namunalari maydonga chiqadi.

Uchinchi davr (1980–1992) “postmodernistik yuksalish davri”dir. Aynan shu yillarda XX asr AQSh tarixiy romanining badiiy jihatdan eng salmoqli asarlari yaratiladi. Postmodernistik poetika yetuklik bosqichiga yetadi va ayni paytda tanqidiy qayta anglana boshlaydi. Shu bilan birga, tub xalqlar va mustamlakachilikdan zarar ko‘rgan boshqa guruhlar tajribasini anglash bilan bog‘liq postkolonial muammolar ham kuchayadi. Bu davrning belgilovchi ijodkorlari Morrison, MakKarti, Doktorou va Pinchonlardir.

To‘rtinchi davr (1992–2000) “post-postmodernistik izlanish davri”dir. Narrativ nisbiylik inqirozidan keyin Amerika tarixiy romani postmodernizmga xos shakliy murakkablikni tarixiy mushohadaning tiklangan axloqiy jiddiyligi bilan sintez qilish yo‘llarini izlay

boshlaydi. Tarixiy travma va uning badiiy ifodasi muammosiga qiziqish ortadiki, keyingi o‘n yilliklarda bu yo‘nalish alohida akademik va badiiy an’ana “travma adabiyoti” sifatida shakllanadi.

Taklif etilgan bu davrlashtirish, albatta, qat’iy xronologik sxema emas, zero davrlar o‘rtasidagi chegaralar o‘tuvchan, ayrim asarlar turli davrlarga xos belgilarni birlashtirishi, ayrim mualliflar esa o‘z davrining yetakchi tendensiyalariga to‘liq mos kelmaydigan yo‘nalishlarda rivojlanishi mumkin. Shunga qaramay, mazkur sxema boy va rang-barang materialni tartibga solish hamda uning rivojlanish mantiqini aniqlash imkonini beradi, bu esa keyingi tizimli tahlil uchun zarurdir.

O‘tkazilgan tahlil ushbu tadqiqotning keyingi bo‘limlari uchun prinsipial ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. XX asr ikkinchi yarmidagi AQSh tarixiy romani bir jinsli janriy hodisa emas, balki davrning o‘zgarib borayotgan ijtimoiy, madaniy va intellektual kontekstlari bilan doimiy o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan murakkab hamda dinamik tizimdir. Uning rivojlanishi ikki qarama-qarshi yo‘nalgan impulsning dialektik o‘zaro ta’siri bilan belgilanadiki, bu, bir tomondan, rasmiy tarixiy bayonlarni qayta ko‘rib chiqishga intilishda, ikkinchi tomondan esa ana shu qayta ko‘rib chiqishning imkoniyatlari, chegaralari va shartlari haqidagi tobora kuchayib borayotgan mushohadada o‘z aksini topadi.

Fuqarolik huquqlari uchun kurash, feminizm, postkolonializm kabi davrning ijtimoiy harakatlari AQSh tarixiy romanining tematik repertuarini bevosita belgilab berdi. Bu ijtimoiy harakatlar tarixiy romanning qullik va irqiy travmaga, ayollarning tarixiy tajribasiga, tub xalqlar taqdiriga, milliy o‘tmishning muqobil talqinlariga bo‘lgan qiziqishini shakllantirdi. Postmodernistik intellektual an’analar esa, o‘z navbatida, uning poetikasini belgilab berdiki, narrativ obyektivlikka nisbatan skeptisizm, hujjatli va xayoliy qatlamlarning aralashuvi, o‘z-o‘zini anglashning badiiy usulga aylanishi shular jumlasidandir. Aynan tematik va poetologik qatlamlarning sintezi tadqiq etilayotgan davrdagi AQSh tarixiy romanining o‘ziga xosligini belgilaydi va keyingi tahlilning asosiy predmetini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Засурский Я. Н. Американская литература XX века. М.: Изд-во МГУ, 1984. – С.467.

2. Hutcheon L. A Poetics of Postmodernism: History, Theory, Fiction. New York; London: Routledge, 1988. – P.208

3. Morrison T. Beloved. New York: Alfred A. Knopf, 1987. – P.211.

4. Swann B., Krupat A. (eds.) Recovering the Word: Essays on Native American Literature. Berkeley: University of California Press, 1987. – P.324.

5. Bradley P. Making American Culture: A Social History, 1900–1979. New York: Palgrave Macmillan, 2009. – P.154.